O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
SHOVOT TUMANI HOKIMINING
QARORI

2022 - yil 23 - may 454-12-177-Q/22 Shovot tuman hokimligi

Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda)*, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 15-son, 197-modda)* O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 y., 32-son, 270-modda)* 169-sonli Qaroriga asosan avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Shovot tumani “Chig’atoyqal’a” qishlog’i “Royat” mahallasi hududidan o’tuvchi “Urganch sh. – Shovot t. – Turkmaniston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo’lining 39.1 km.da joylashgan zaxkash ko’prigining sharq tomoniga 1.18.2 “O’ngga torayish” va 2.6 “Ro’paradan harakatlanishning ustunligi” hamda ko’prikning g’arb tomoniga 1.18.3 “Chapga torayish” va 2.7 “Ro’paradagi harakatlanishga nisbatan imtiyoz” yo’l belgilari o’rnatishga ruxsat berilsin.

2. Tuman yo’llardan foydalanish unitar korxonasi (Sh.Otajanov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Qurbanov)lar Tuman IIB YHXG katta inspektori (S.Sapayev) bilan birgalikda Shovot tumani “Chig’atoyqal’a” qishlog’i “Royat” mahallasi hududidan o’tuvchi “Urganch sh. – Shovot t. – Turkmaniston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo’lining 39.1 km.da joylashgan zaxkash ko’prigining sharq tomoniga 1.18.2 “O’ngga torayish” va 2.6 “Ro’paradan harakatlanishning ustunligi” hamda ko’prikning g’arb tomoniga 1.18.3 “Chapga

torayish” va 2.7 “Ro’paradagi harakatlanishga nisbatan imtiyoz” yo’l belgilari o’rnatishga, beton to’siq qo’yish vakolatlari doirasida me’yoriy hujjatlarda ko’rsatilgan tartibda o’rnatilishini ta’minlash choralarini ko’rsin.

3. Ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy nashri hisoblangan “Shovot istiqboli” gazetasida e’lon qilinsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati bo‘limi (S.Yuldoshev) tuman hokimligi bosh yuriskonsulti bilan hamkorlikda (Yo.To‘xtaboev);

mazkur qarorni tuman hokimligining shovottuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun mohiyatini aholiga tushintirish ishlarini olib borsinlar.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish yo’llarda harakatlanish xavfsizligini ta’minlash komissiyasi raisi, tuman hokimining o’rinbosari B.Otajanov zimmasiga yuklatilsin.

Shovot tumani hokimi **O.Artiqov**